

ISSN: 2181-4031

ФУНДАМЕНТАЛ


ТАДҚИҚОТЛАР ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛИ

1-СОН

ЯНВАРЬ, 2023



IMFAKTOR
PAGES



ISSN: 2181-4031
DOI Journal 10.56017/2181-4031

ФУНДАМЕНТАЛЬНЫЕ
ИССЛЕДОВАНИЯ
НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
НОМЕР-1

ФУНДАМЕНТАЛ
ТАДҚИҚОТЛАР
ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛ
1-СОН

FUNDAMENTAL STUDIES
SCIENTIFIC-PRACTICAL JOURNAL
VOLUME-1



ТОШКЕНТ - 2023

ФУНДАМЕНТАЛ ТАДҚИҚОТЛАР

илмий-амалий журнали

№ 1 (2023) DOI <http://dx.doi.org/10.56017/2181-4031-2023-1>

Бош муҳаррир:

Тураев Б. – фалсафа фанлари доктори, профессор

Масъул муҳаррир:

Расулова Д. – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент

Таҳририят аъзолари:

Кенжабаев А. – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор

Расулова Д. – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент

Саттаров О. – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент

Исҳоқов М. – тарих фанлари доктори, профессор

Абдуҳалимов Б. – тарих фанлари доктори, профессор

Каримов Б. – тарих фанлари номзоди, доцент

Мадумаров Т. – юридик фанлар доктори, профессор

Қодиров Б. – юридик фанлар доктори, доцент

Қиличев Х. – юридик фанлари бўйича фалсафа доктори

Баҳодиров Р. – фалсафа фанлари доктори, профессор

Саифназаров И. – фалсафа фанлари доктори, профессор

Идиоров У. – сиёсий фанлар доктори, профессор

Абдуллаев Н. – сиёсий фанлар номзоди, доцент

Сатторов А. – сиёсий фанлар номзоди, доцент

Умаров А. – социология фанлари доктори, профессор

Матибаев Т. – социология фанлари доктори, профессор

Каюмов К. – социология фанлари бўйича фалсафа доктори

Мазкур фанлараро илмий-амалий журнал Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ҳузуридаги Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги томонидан 2022 йил 22 декабрь куни № 054837-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Page Maker\Верстка\Саҳифаловчи: Абдурахмон Хасанов

Таҳририят манзили: <https://imfaktor.uz>, 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2/27-уй.

Телефон номер: +99894-410 11 55, E-mail: tahririyat@imfaktor.uz

© IMFAKTOR Pages, 2023 йил.

© Муаллифлар жамоаси, 2023 йил.



AKRAMOV Doston Faxriddin o'g'li
Buxoro davlat universiteti
Jahon tarixi kafedrasida o'qituvchisi

SOVETLAR HUKMRONLIGI DAVRIDA ALIFBONING O'ZGARTIRILISHI

Иқтибос келтириш учун (for citation, для цитирования): **AKRAMOV D.F.**
Sovetlar hukmronligi davrida alifboning o'zgartirilishi // *Фундаментал тадқиқотлар.*
№ 1 (2023) Б. 103-107.

 <https://doi.org/10.5281/zenodo.7585165>

ANNOTATSIYA

Sovetlar olib borgan maorif sohasidagi islohotlari, O'zbekiston hududida o'tkazilgan lotinlashtirish, lotin alifbosiga o'tishda olib borilgan g'oyalar hamda uning o'zbek xalqiga yetkazgan oqibatlarini. Yozuv o'zgarishi bilan maorifning holatlari va yetkazgan halokatli izlari haqida tilga olingan.

Kalit so'zlar. Maorif, kurs, lotinchilar jamiyati, alifbo, krujok, konferensiya, sjezd, qurultoy, akademiya.

АННОТАЦИЯ

Реформы в области образования, проведенные Советами, латинизация, проведенная на территории Узбекистана, идеи, осуществленные при переходе на латиницу и их последствия для узбекского народа. при изменении написания упоминалось о состоянии образования и его разрушительных последствиях.

Ключевые слова. Образование, курс, латинское общество, алфавит, клуб, конференция, конгресс, съезд, академия.

ANNOTATION

The reforms in the field of education carried out by the Soviets, the Latinization carried out in the territory of Uzbekistan, the ideas carried out in the transition to the Latin alphabet and its consequences for the Uzbek people. with the change of writing, it was mentioned about the state of education and its destructive effects.

Key words. Education, course, latin society, alphabet, club, conference, congress, convention, academy.

Ziyolilarimiz ham xalqimizga katta mehr va sadoqat bilan xizmat qilib, ilm-fanni rivojlantirish, yurtimiz kelajagini ta'minlash, millatimizning aql ko'zini ochishdek ezgu maqsadga umringizni bag'ishlagansiz.

Ezgu g'oya va vasiyatlari asosida ta'lim va tarbiya sohasidagi tub islohotlarni yuksak bosqichga ko'tarish, mamlakatimizning taqdiri va kelajagi uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir bo'lgan yangi avlod kadrlarini voyaga yetkazishga qaratilgan ishlarni izchil davom ettirish hammamizning nafaqat vazifamiz, balki muqaddas burchimiz bo'lib, biz bu yo'lda birinchi navbatda siz, azizlarga, sizlarning bilim va malakangiz, tajriba va mahoratingizga tayanamiz [1, B.24].

Ilm-fansiz bobolar merosini o'rganib, rivojlantirish u yoqda tursin, hatto asrab bo'lmaydi. Dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdur, zamona ilmi fanidan bebahra millat boshqalarga poymol bo'lur [2, B.88]. Har bir xalqning ma'naviy boyliklari va xazinasi, uning kelajagidagi muvaqqiyat va yutuqlariga so'zsiz ta'sir ko'rsatadi.

Mustaqillikka erishganimizdan keyin xalqimizning o'z yurti, tili, madaniyati, qadriyatlari tarixini bilishga, o'zligini anglashga qiziqishi kuchayib bormoqda. Bu tabiiy hol. Odamzod borki, avlod-ajdodi kimligini, nasl-nasabini, o'zi tug'ilib voyaga yetgan qishloq, shahar, xullaski, Vatanining tarixini bilishni istaydi. Ota-bobolarimizning asrlar davomida to'plagan hayotiy tajribalari, diniy, axloqiy, ilmiy qarashlarini o'zida mujassam etgan bu nodir qo'lyozmalarni jiddiy o'rganish davri keldi. Chunki, o'zingizga ma'lum, sho'rolar zamonida tarixiy haqiqatni bilishga intilish rag'batlantirilmas edi, hukmron mafkura manfaatlariga xizmat qilmaydigan manbalar xalq ko'zidan iloji boricha yiroq saqlanardi. Ahvol shu darajaga borgan ediki, o'z tariximizni o'zimiz yozish huquqidan mahrum bo'lib qoldik. Shu bilan birgalikda arab yozuvidagi nodir qo'lyozmalarni va asarlarni saqlash yoki undan foydalanish taqiqlab qo'yildi. Bu yovuz ishlarni baynalmilallik, tenglik, ozodlik shiori bilan sovetlar yangi yozuv islohotini amalga oshirdi.

O'zbekistonda sovetlar hukmronligi o'rnatilgach, barcha sohalarda islohotlar amalga oshirildi. Milliy chegaralanish o'tkazilib, O'zbekiston SSR tashkil etildi. O'zbeklar hayotida yangi davlat mafkurasini singdirish uchun avvalo, qadimiy asriy qadriyatlar, urf-odatlarini va ma'naviy xazinalarni yo'qotish kerak edi. Shu bois, birinchi navbatda ma'naviy xazinalar bitilgan yozuvga e'tibor berildi, uni o'zgartirish harakatida bo'lishdi. O'zbek xalqining shaklan milliy, mazmunan sotsialistik madaniyatini tez sur'atlar bilan taraqqiy qildirish uchun arab alfaviti o'rniga yangi alfavit joriy qilish zarur bo'lib qoldi.

Hozirgi kunda eng asosiy masalalardan biri yoshlarga ta'lim-tarbiya berish sanaladi. Inson tug'ilgandan buyon urf-odat va an'analarni eshitib katta bo'ladi. Shu bois, uning atrof-muhit bilan aloqasini e'tiborga olib, maktablarda asriy saqlanib qolgan: arab tili va imlosini hamda diniy qadriyatlarni zamonaviy baynalminal tuyg'ular bilan tarbiyalash lozim sanaladi [3, B.3].

Jadidchilik harakati davomida arab imlo va harf masalasi o'zgartirilmadi, 1917-yil oktabr inqilobidan keyin til va yozuv masalasi jiddiylashib bordi. Bu masalada 3 xil fikr va qarash tarafdorlari vujudga keldi. Birinchi guruh "Chig'atoy gurungi" a'zolari yangi islohot o'tkazish, ikkinchi guruh arab yozuvini saqlash, uchinchi esa murosa tarafdorlari edi. 1921-yil Toshkentda birinchi qurultoy chaqiriladi. Qurultoyda Fitrat va Botu ma'ruza qilishdi.

Fitrat islohot tarafdori ekanligini ta'kidladi, Botu esa unga qarshi ekandigi va madaniyatga orqa burganlar yaxshi emas, xar bir harf yozishda qiyinchilik bor, misol bosh harf bilan yozish ko'p vaqt ketadi, harf ajratish uchun qavs qo'yish va ustda hamda ostda nuqta qo'yish odamni chalg'itadi. Undan keyin Said chiqib lotinni qo'llab-quvvatlaydi. Keyinchalik qurultoydan keyin Botu fikri o'zgarib, lotinchilik hrakatining faol a'zosiga aylanadi. Xorazm jung'uriyati 1924-yilda matbuotda maktablarda yozuv tanloviga muvofiq dars o'tilishi haqida buyruq berildi. 1926-yil O'zbekistonda ijroqo'm 4-sessiyasida arab yozuvi qiyinligi va lotin yozuvi afzalligi bois 42 kishidan iborat qo'mita tuziladi. 1927-yil may oyida O'zbekiston, Qozog'iston va Qirg'iziston alifbo qo'mitalari O'rta Osiyo plenumida yangi alifbo loyihasini joriy etishga kelishib olishadi. Shundan so'ng 1927-yil 20-dekabrda yangi alifboni mamlakat bo'ylab ommalashtirish uchun kurslar va to'garaklar tashkil qilinadi. Markaz qo'mita 5-yil ichida lotin yozuvida to'liq ish yuritishni tashkil etish haqida qaror qabul qildi [4, B.8]. 1926-yilning 28-fevralida Boku shahrida turkologlarning Butunittifoq Birinchi syezdi chaqirildi. Syezdning ishida turkiy tilda gapirishadigan hamma sovet xalqlarining vakillari ishtirok qildilar. Ular yozuvni tubdan o'zgartirish lozimligini aytdilar va lotin alfaviti joriy qilinishini yoqladilar.

E. Qodirov "O'zbekistonda 1929-yil yangi alifboga o'tildi" [5, B.31] deb ma'lumot beradi. Ammo bu harakatlar oldinroq boshlandi. O'zbekistonda 1926-yilda alfavitni lotinlashtirish sohasida jiddiy ish boshlandi. 1926-yilning iyulida O'zSSR Markaziy Ijroiya Komiteti Sovetlar 6-Sessiyasi qaroriga muvofiq, lotinlashtirish Markaziy Komiteti barpo etildi. Oradan birmuncha vaqt o'tgach, okrug bo'limlari ham tuzildi. Lotinlashtirish komiteti, yangi alfavit va orfografiya masalalarini nazariy va amaliy ishlab chiqish uchun O'zbekiston Maorif Xalq Komissarligining Akadem markazi bilan birlikda 1926-yil avgustida o'zbek tili mutaxassislari konferensiyasini chaqirdi. Konferensiya lotin grafikasiga asoslangan yangi alfavit loyihasini ishlab chiqdi. Yangi alfavitda unli tovushlar uchun 9 harf va undosh tovushlar uchun 23 harf belgilandi. Konferensiya tamom bo'lgandan keyin, yangi alfavit bilan tanishtirish va bu alfavitni amaliy suratda turmushga oshirish maqsadi bilan, aholi o'rtasida juda keng ko'lamda ommaviy targ'ibot ishlari faollashtirib yuborildi. Plakatlar, yangi o'zbek lotin alfavitining devorlarga osib qo'yiladigan va cho'ntaklarda yuritiladigan tablitsalari bosib chiqarildi; savodli kishilar uchun tegishli qo'llanmalar tuzila boshlandi, «Qizil yo'l» nomli alifbe, shuningdek, «Orfografiya lug'ati» nashr qilindi, bu lug'at hamda alifbe yangi alfavit asoslarini o'rganishni osonlashtirdi. Bundan tashqari, o'qituvchilarni yangi alfavit asosida savod o'rgatishga o'tish uchun tayyorlash maqsadida markaziy va oblast kurslari ochildi.

Bu harakatlarni R.Karimov "yangi alifboga o'tishda Sharqda inqilob bo'ladi, bu islohot amaliy va siyosiy ahamiyatga ega bo'ladi" [6, B.10] deb tasniflaydi. O'zbek yangi alifbosini hal qilish masalasi faqat madaniy emas, balkim siyosiy va ijtimoiy ahamiyat kasbga ega. Biz hozir umumiy va tezlik bilan madaniy ko'tarilish madaniy birlashish zarur va birinchi navbatdagi turmush vazifalaridan bo'lgan asosiy davriga turamiz. Shu uchun eski musulmon madaniyatidan bizga qolgan meros arab alifbosi o'rganishga qiyin bo'lib ommaning madaniy o'sishiga katta monelik qilar edi.

Mana shu bizning markazimiz barcha idoralar butun firqa va jamoatchilik bilan birga bu masala ustida tushuntirish va tashviqot masalasini mumkin qadar keng yetkazish kerak [7, B.6].

M. Ochilov ma'lumotiga ko'ra "1929-yildan O'zbekistonda lotin tiliga o'tilishi savodsizlikka qarshi kurashish samaradorligini birmuncha rivojlantirishga katta ta'sir ko'rsatdi"[8, B.6] deb o'z fikrini aytib o'tadi.

O'zbekistonning ba'zi bir shaharlarida, masalan Toshkent, Farg'ona shaharlarida "Lotinchilar jamiyati" o'zbek tilining lotinlashtirilgan alfavitini o'rganish krujok yacheykalari tuzildi. Lotinlashtirilgan alfavitni mehnatkashlar ommasi o'rtasida muvaffaqiyatli suratda yoyish maqsadi bilan, vaqtli matbuotdan, leksiya targ'ibotlaridan va boshqa ko'pgina vositalardan foydalanildi. Aholi o'rtasida muvaffaqiyat bilan juda katta ommaviy-siyosiy ishlar o'tkazilishi, lotinlashtirishga qarshilik ko'rsatgan burjua millatchilarining kirdikorlari fosh qilinishi natijasida, 1929 yilning oxiriga kelib, arab alifbesi batamom chiqarib tashlandi va uning o'rniga yangi, lotinlashtirilgan alfavit joriy qilindi. Ammo yangi o'zbek alfaviti tuzishda o'zbek tilining turli shevalari xususiyatlari nazarga olinmagan edi. Bu kamchilik keyinchalik tuzatildi. Yangi alfavitga ko'chish tilni o'rganib olishni osonlashtirdi, terminlarning qaror topishi va takomillashuvi jarayoni tezlashtirdi hamda orfografiya sohasida hukm surib kelgan bir qancha munozarali masalalarni amaliy hal qilib berdi. 1928-yil Qashqadaryoning bir nechta tumanlarida: Shahrisabzda 2ta, Kitobda 1ta, Guzarda 1ta, Chiroqchi 1ta, Kosonda 1ta yangi alifbodan savod chiqarish kurslari ochilgan [9, B.25]. Alfavit faqat O'zbekistondagina lotin grafikasiga ko'chirilib qolmay, balki Sovet Sharqining boshqa milliy respublikalari va avtonom oblastlarida ham ko'chirilgan edi. 1929-yilda respublikaning maktablari lotin harfida terib bosilgan yangi darsliklar oldilar. Bu islohotlar tor doirada bo'lib, faqatgina maktablarda va quyi pog'onadagi ishchilar qamrab olindi xolos, boshqa tashkilot va boshqaruv organlari chetda qoldi. Yangi alifbo qo'mitasi tomonidan ko'plab kurslar tashkil etildi. Ishchi, dehqonlarni 73 ta ikki oylik kurslarda 1990 ta kishi savodini chiqaradi. Qizil askarlar uchun 48ta kurs ochildi. Hunarmandlar va xotin-qizlar uchun 7 ta kurs ochib beriladi. 1928-1929-o'quv yili birinchi bosqich maktablarida yoppasiga yangi alifboda o'qitish uchun yozda o'qituvchilarni 10 soatlik qayta tayyorlov kurslariga jalb etadi. Keyinchalik dastur o'zgartirilib 86 soat ona tili darsi kiritildi va o'qish muddatini ham bir haftaga uzaytiriladi. Bu kurslarga 2270 o'qituvchi tayyorlandi.

Qo'mita ma'lumotiga qaraganda quyidagicha kishi alifbo kurslariga jalb qilingan:

- 2820 ta ishchilar va xizmatchilar;
- 2550 ta o'qituvchilar;
- 3032 ta to'garaklarda;
- 3697 ta o'z-o'zi o'qiganlar;
- 17426 ta maktablarda;
- 700 qizil askarlar.

Jami 30225 ta kishi yangi alifbo kurslarida va to'garaklarida savodini chiqardi[10, B.14].

1928-yilga kelib, o‘qish va yozishda arab alifbosidan lotin alifbosiga o‘tildi va shu bilan diniy maktablar tugatildi [11, B.4].

O‘zbekistonda 1927-1930-yillarda lotinlashtirish jarayoni olib borildi. Bu boshqa hududlarda ham davom etdi. Qozog‘istonda 1928-1931-yillarda, Turkmanistonda 1929-1930-yillarda lotinlashtirish bo‘lib o‘tdi [12, B.126].

Xullas, sovetlarning yozuvni o‘zgartirish islohoti nafaqat madaniy, balki siyosiy va ijtimoiy ahamiyatga molik masala edi. Bu islohot natijasida juda ko‘p kitoblar, madrasalar yo‘q qilib yuborildi. O‘rta asrlarda O‘rta Osiyo uyg‘onish davri bo‘lib, juda ko‘p allomalar o‘zlarining boy ilmiy va nazariy tajribalarini qoldirib, ko‘plab ilmiy asarlar qoldi. Bu asrlar necha asrlar davomida oliy ta‘lim sanalmish madrasada eng asosiy darslik va qo‘llanma sifatida foydalanib kelindi. Mana shu ajdodlarimizning boy ma‘naviy xazinasini madrasalarni tugatish bilan halokatga yuz tutdi. Lotinlashtirish islohoti o‘zbek qadriyatlarini va an‘ana hamda urf-odatlarini yo‘qqa chiqardi. Bu tarix zarvaraqlarida ham o‘zga qarashda ifodalandi. Kommunistik mafkura bilan bezatib ta‘riflandi. Shu sababli, tarix sahifalarini o‘qir ekanmiz, albatta xolis haqqoniy g‘oya va mazmunini bilishimiz va anglashimiz darkor.

IQTIBOSLAR

1. Мирзиёев Ш. Миллий таракқиёт йўлимизни катъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. - Тошкент: «Ўзбекистон», 2017 . - 592б.
2. Каримов И.А “Баркамол авлод орзуси”.-Т. Шарқ.1999. –Б.184
3. Azam A. Yoshlarga sog'lom mafkuraviy tarbiya beraylik. / Maorif va o‘qituvchi. 1929-yil. 6-son. 3-bet.
4. Bekjon R. O‘zbekistonda lotinchilik harakati / Alanga jurnali. 1928-yil,1-son. 8-bet.
5. Қодиров Э. Ўзбекистонда халқ маорифининг 40 йил ичида эришган ютуқлари. –Т.: “Ўздавпеднашр”. 1957. 31-бет.
6. Каримов Р. Октябрь революцияси ва Ўзбекистон маданий қурилиши. – Тошкент: Ўзбекистон КППМКБН,1967. –Б.40
7. Хо‘jaev F. Yangi alifbo to‘g‘risida. /Alanga jurnali. 1928 yil, 3-4 son. 6-bet.
8. Очилов М. Ўзбекистон комсомолининг умумий –мажбурий таълим учун кураши. –Т.: “Ўздавнашр”. 1958. 11-бет.
9. Nasirbekov N. Qashqadaryo yangi alifbo qo‘mita ishlari jonlana boshladi /Alanga jurnali. 1928-yil, 6-7son. 25-bet.
10. Yangi alifbo kurslari /Alanga jurnali. 1928-yil, 5-son. 14-bet.
11. Akramov D. Sovet hokimiyatining “madaniy inqilobi” va uning ozbekiston hayotiga tasiri //центр научных публикаций (buxdu. uz). 2021. – Т, №.8.
12. Рашидов О. Ўзбекистон ҳудудида миллий зиёлилар ва бошқивикларнинг мафкура майдонидаги кураши(1917-1938 йй). – Тошкент.: “Муҳаррир”, 2022.-288 б.